

SUV RESURLARINI TEJASHNING AHAMIYATI

Nasibova Ziyodaxon

Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti

Raqamli iqtisodiyot va axborot

texnologiyalari fakulteti talabasi

ziyodanasibova@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada suv resurslaridan oqilona foydalanish, iqlim o'zgarishining tabiiy resurslarga va insoniyat hayoti va kelajagiga ta'siri haqida borilayotgan say-harakatlar va chora-tadbirlarning resurslarni kelajak avlodga o'z holicha yetkazish vazifasidagi o'rni bo'yicha ham ma'lumotlar berilgan.*

Kalit so'zlar: *Iqlim o'zgarishi, chuchuk suv, qurg'oqchilik, yer usti va yer osti suvlari, ishlar olib borishmoqda.*

Bugungi kunda suv resurslari bilan bog'liq muammolar global miqyosda ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy barqarorlikka tahdid soluvchi dolzarb masalalardan biri sanaladi. Aholi sonining ortib borishi, sanoatning jadal rivojlanishi, qishloq xo'jaligi faoliyatining kengayishi va urbanizatsiya jarayonlarining tezlashuvi natijasida suvga bo'lgan talab keskin oshmoqda. Shu bilan birga, mavjud suv manbalarining ifloslanishi, isrof qilinishi va iqlim o'zgarishlari tufayli ularning tabiiy qayta tiklanish sur'atlari sustlashmoqda. Bu holat suv tanqisligi, suv sifatining yomonlashuvi va suv resurslaridan foydalanishdagi nizolarning kuchayishiga olib kelmoqda.

Bu muammo hozirgi kunda butun dunyo uchun dolzarb bo'lib, yer yuzidagi aholi orasida 1 milliarddan ortiq kishi hali ham ichimlik suvi bilan to'liq ta'minlanmagan. Bugungi kunda ko'plab davlatlarda aholi va qishloq xo'jaligi iste'molchilari tomonidan yer osti suvlaridan oqilona va samarali foydalanish, ularni muhofaza qilish masalasi tobora jiddiy muammoga aylanib bormoqda. Ayniqsa, yer osti suv resurslarini rivojlantirish maqsadida ulardan ortiqcha foydalanish natijasida antropogen ta'sirlar kuchayib, ekologik muvozanatga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Suv yer yuzidagi har bir tirik jonzot uchun eng muhim hayot manbai hisoblanadi. Garchi yer yuzasining 71 foizini suv qoplasa-da, iste'molga yaroqli toza ichimlik suvi uning juda oz qismini tashkil etadi. Olimlar yillar davomida suv va boshqa tabiat

in'omlarini asrab-avaylash, ularni kelajak avlodlar uchun saqlab qolish masalasida izlanish olib bormoqda. Afsuski, ko'plab hududlarda uzoq yillardan buyon qurg'oqchilik hukm surmoqda va bu holat natijasida turli yuqumli kasalliklar, epidemiyalar tarqalishi hamda o'lim holatlari kuzatilmoqda. Mutaxassislar bunday salbiy oqibatlarga qarshi insoniyat doimo tayyor bo'lishi zarurligini ta'kidlashmoqda. Iqlim o'zgarishi, havoning keskin isishi kabi omillar tufayli yana ko'plab davlatlarni jiddiy qurg'oqchilik xavfi kutmoqda. "Yer — xazina, suv — gavhar", degan iborani xalqimiz bejizga aytmagan. Yer ham, suv ham insoniyatni oziq-ovqat, turmush uchun zarur ne'matlar bilan ta'minlaydi, salomatlikni saqlashda muhim rol o'ynaydi. Shu sababli ham xalqimiz azal-azaldan suv manbalaridan oqilona foydalanish va ularni asrashga katta e'tibor bilan yondashib kelgan.

Suvdan samarali foydalanish va taqsimlashning barqaror amaliyotlarini ishlab chiqish barcha mamlakatlarning kelajakdagi iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishi uchun juda muhimdir. Ayniqsa, murakkab iqlim sharoitida joylashgan O'zbekiston uchun suvni tejab ishlatish masalasi doimo dolzarb ahamiyatga ega bo'lib kelgan

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni bilan qabul qilingan Strategiya 2030ning alohida, uchinchi yo'nalishi — Suv resurslarini tejash va atrof-muhitni muhofaza qilish bilan bog'liq ekanligi ham bejiz emas. Suv ishlatish samaradorligini 25 foizga oshirish, qishloq xo'jaligi ekinlarini sug'orishda suv tejaydigan texnologiyalar bilan qamrab olingan yerlarning umumiy maydonini 2 mln gektargacha, shu jumladan tomchilab sug'orish texnologiyasini 600 ming gektargacha yetkazish. Ayrim tadqiqotchilarning fikricha, global iqlim o'zgarishi natijasida so'nggi 50-60 yil davomida Markaziy Osiyoda muzliklar maydoni taxminan 30 foizga qisqargan va 2050 yilga borib Markaziy Osiyoda chuchuk suv tanqisligi mintaqada yalpi ichki mahsulotning 11 foizga pasayishiga olib kelishi bashorat qilinadi.

Afsuski, global iqlim o'zgarishi, O'zbekistonda aholi sonining o'sishi, milliy iqtisodiyot turli tarmoqlarining jadal rivojlanishi va ularning suvga bo'lgan talabining o'sishi tufayli respublikada suv resurslarining taqchilligi yildan-yilga ortib bormoqda. Hozirgi vaqtda sug'orish va ekologik maqsadlar uchun suvga ehtiyoj to'liq qondirilayapti, deb aytoilmaymiz. Suv iste'molining ko'payishi va manbalarining ifloslanishi chuchuk suv zaxiralarining kamayishiga olib keladi. O'zbekistonda mavjud chuchuk suv hajmining qisqarishi tufayli suv tanqisligi va qurg'oqchilik xavfi

sezilarli darajada oshmoqda. Bu muammo poytaxtimizda unchalik sezilmasa ham O‘zbekistonning boshqa hududlarida yaxshigina chuchuk suv tanqisligi kuzatilmoqda.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda iqlim o‘zgarishi oqibatlarini yumshatishning ustuvor yo‘nalishlari va suv resurslaridan oqilona foydalanish chora-tadbirlarini aks ettiruvchi qator konseptual hujjatlar qabul qilindi. «2030 yilgacha bo‘lgan davrda Atrof muhitni muhofaza qilish konsepsiyasi», «Suv xo‘jaligini rivojlantirishning 2020–2030 yillarga mo‘ljallangan konsepsiyasi», «2020–2025 yillarda gidrometeorologiya xizmatini rivojlantirish konsepsiyasi», «Suv resurslarini boshqarish va irrigatsiya sektorini rivojlantirishning 2021–2023 yillarga mo‘ljallangan strategiyasi», «Suv resurslaridan foydalanish sohasida davlat boshqaruvi va nazorat tizimini yanada takomillashtirish hamda suv xo‘jaligi obyektlari xavfsizligini ta‘minlash chora-tadbirlari»gi farmon va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar shular jumlasidandir.

Suv tanqisligining oqibatlaridan eng ko‘p va bevosita ziyon ko‘radigan shaxslar – bular yer bilan ishlaydigan dehqonlar, fermer xo‘jaliklari sohiblarigina emas balki barcha tirik jonzo‘g‘o‘z ta‘sirini o‘tkazmay qolmaydi. Yer osti suvlaridan asosan qishloq xo‘jaligi va sanoat maqsadlarida keng foydalanilmoqda. Shu bois mamlakatimizda fermer xo‘jaliklari vakillariga suv resurslaridan oqilona va samarali foydalanish bo‘yicha ko‘nikmalarini oshirishga alohida e‘tibor qaratiladi. Xususan, ayni vaqtda respublikamizning barcha hududlarida fermer xo‘jaliklari vakillari uchun ko‘rgazmali seminarlar o‘tkazilmoqda. Namunali fermerlar tajribasidan kelib chiqib, sug‘orishning suvni tejaydigan texnologiyalarini joriy etishni rag‘batlantirish mexanizmlari ko‘rsatilmoqda. Shuni ta‘kidlash joizki, yurtimizda yer osti suvlari zahiralarini notekis taqsimlangan bo‘lib Toshkent viloyati 28 foiz, Samarqand 14 foiz, Surxondaryo va Namangan 13 foizdan, Andijon – 12 foiz va Farg‘onaga – 8 foiz to‘g‘ri keladi va respublika ichimlik suv ta‘minotining 67 foizini tashkil etadi. Mazkur texnologiyalarni joriy etishni yanada rag‘batlantirish maqsadida 2023 yilda suvni tejash tizimi joriy etilgan g‘alla va sabzavot maydonlarining har bir gektari uchun subsidiyalar miqdori 1 mln so‘mdan 8 mln so‘mgacha oshirildi. Atrof-muhit obyektlarining ifloslanishi monitoringiga ko‘ra, yer osti suvlarining asosiy ifloslantiruvchi moddalari sanoat, qishloq xo‘jaligi va kommunal korxonalar hisoblanadi. Respublikamizning ayrim hududlarida yer usti suv chiqarish tarmoqlari

va drenaj tizimlarining qoniqarsiz holati, ayrim shaharlar va boshqa aholi punktlarida yer osti suvlari sathining intensiv ko‘tarilishiga olib kelgan. Shunga qaramay, Suv xo‘jaligi vazirligi tomonidan fermer xo‘jaliklari o‘rtasida suvdan oqilona foydalanishning hayotiy zarurligini tushuntirish, tomchilatib sug‘orish usuliga o‘tishning iqtisodiy maqsadga muvofiqligini, suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy etishga qaratilgan targ‘ibot-tashviqot ishlarini kuchaytirish zarurati bor. Televideniye va elektron OAVlarda suvni tejash masalalari muhokamasiga milliy ekspertlarni jalb etish dolzarbdir: suv resurslaridan oqilona foydalanish bo‘yicha ekspertlarning fikr-mulohazalari tadbirkorlik subyektlari uchun ham, keng jamoatchilik uchun ham muhim ahamiyatga ega. Muammoning dolzarbligini inobatga olgan holda, mahalliy ommaviy axborot vositalari suvni tejash bo‘yicha amaliy tavsiyalar aks ettirilgan maxsus materiallarni muntazam chop etishi kerak.

Suvni tejab ishlatish vaqti keldi. Toza ichimlik suvidan foydalanish insonning asosiy huquqlaridan biridir. Suv resurslariga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lish kelajak avlodlar uchun barqaror rivojlanishning kalitidir. Suvdan oqilona foydalanish bo‘yicha davlat chora-tadbirlari samaradorligini oshirishda aholi, ayniqsa, yoshlar o‘rtasida suvdan foydalanish madaniyatini yuksaltirish, ichimlik suvi uchun bozor narxlarini joriy etish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Aholining suv bilan ta‘minlanganlik holati aholi turar punktlari va ulardagi turmush darajasining eng muhim ko‘rsatkichlaridan biridir. Ichimlik suvining asosiy iste‘molchisi sifatida aholi suvni tejash jarayonida muhimroq rol o‘ynashi kerak.

Dono xalqimiz bejizga “Ummon oldida tursang ham bir tomchi suvni uvol qilma”, demagan. Haqiqatdan ham, suv va boshqa tabiiy resurslarni asrab-avaylash har bir insonning nafaqat fuqarolik burchi, balki kelajak avlodlar oldidagi mas‘uliyatidir. Suvdan oqilona foydalanish borasida olib borilayotgan islohotlar va chora-tadbirlar samarador bo‘lishi uchun avvalo omma ongini o‘zgartirish, ularda ekologik madaniyatni shakllantirish zarur. Afsuski, aholimizning katta qismi hanuzgacha mustamlaka davrida shakllangan eski odat – Amudaryo va Sirdaryodan oqib kelayotgan suvni cheksiz manba sifatida ko‘rib, uni paxta, g‘alla yoki poliz ekinlariga behisob sarflashga odatlangan. Ichimlik suvi bilan shaxsiy mashina yuvish, sabzavotlarni oqar suvda “muzlatish”, ya‘ni me‘yordan ortiq sug‘orish kabi holatlar ko‘p uchraydi. Bu esa nafaqat resurslar isrof bo‘lishiga, balki suv taqchilligi muammosining chuqurlashuviga ham olib kelmoqda.

Yurtimiz jannatmakon, tabiati go‘zal, bog‘-rog‘larda mevalar g‘arq pishadi, ariqlarda suv jildirab oqadi. Biroq bu ne‘matlarning ham cheki borligini anglab yetmasak, kun kelib holimizga voy bo‘ladi. Ayniqsa, suvdan tejab foydalanmaydigan, to‘lovni vaqtida amalga oshirmaydigan, biroq davlat xizmatlaridan norozilik bildiradigan fuqarolar hali ham uchrab turibdi.

Tejamkorlikni yoshligimizdan, oilamizdan boshlamasak, kelajakda tabiat bilan yuzaga keladigan muammolarni hal qilish ancha qiyinlashadi. Shu sababli har bir fuqaro suvdan, elektr energiyasidan va boshqa tabiiy boyliklardan oqilona foydalanishni o‘zining hayotiy tamoyiliga aylantirishi zarur.

Boshqa tomondan, aholi o‘rtasida suvdan oqilona foydalanish madaniyatini shakllantirish bo‘yicha doimiy tizimli ishlarni amalga oshirish zarur. Bu tushuntirish ishlari ta‘limning barcha bosqichlarida – “bog‘cha – maktab – universitet”da, eng muhimi, oilada zarur. Yosh avlodni suvga g‘amxo‘rlik qilish ruhida tarbiyalash maqsadida maktab va oliy o‘quv yurtlarida o‘quv kurslarini o‘tkazish amaliyoti odatiy holga aylanishi kerak. Shu mavzuda insho, rasm, plakat tanlovlarini tashkil etish ham yoshlar e‘tiborini muammoga qaratishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, suv – hayot manbai va bebaho ne‘mat. Afsuski, uning ortiqcha sarflanishi va ifloslanishi tufayli dunyo bo‘ylab suv tanqisligi toboro kuchayib bormoqda. Ushbu maqolada suvning tejashning ahamiyati, suv tanqisligi sabab va oqibatlari va bundan aholi xabardorligini oshirish bo‘yicha fikrlar ko‘rib chiqildi. Har birimiz suvni tejashga hissa qoshishimiz shart va bu orqali kelajak avlodlar uchun ushbu muhim resursni saqlab qolishimiz mumkin. Suvni tejash – bu nafaqat ekologik zarurat, balki iqtisodiy va ijtimoiy mas‘uliyat hamdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mahamadsaidovich X. Y. O ‘ZBEKISTONNING SUV RESURSLARI VA ULARDAN OQILONA FOYDALANISH MASALALARI //FORMATION OF PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY AS INTERDISCIPLINARY SCIENCES. – 2024. – T. 3. – №. 33. – C. 14-29.

2. Gulboy S. O‘ZBEKISTONDA SUV RESURSLARIDAN OQILONA FOYDALANISH //INNOC. – 2025. – T. 1. – №. 1. – C. 212-220.

3. Muhabbat A. SUV-HAYOT MANBAI //SCIENTIFIC APPROACH TO THE MODERN EDUCATION SYSTEM. – 2025. – Т. 3. – №. 34. – С. 60-65.

4. Акбарова С. ЗНАЧЕНИЕ ФОРМИРОВАНИЯ ЭКОНОМИЧЕСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ У СТУДЕНТОВ //Экономическое развитие и анализ. – 2024. – Т. 2. – №. 11. – С. 73-78.

5. Зикиров Б. Я., Зикиров И. Я. СУВ МУҲИМ ТАБИЙ РЕСУРС ВА ЭКОЛОГИК ОМИЛСИФАТИДА //Journal of Geography and Natural Resources. – 2022. – Т. 2. – №. 1. – С. 10-16.